



## TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA KASBIY KOMPETENTLIK

**Valixanova Nigora Abdulkaxorovna**

p.f.f.d. (PhD), dotsent

Turon universiteti Andijon filiali Pedagogika va tillar kafedrasini mudiri,

[nigora.valixanova@mail.ru](mailto:nigora.valixanova@mail.ru)

**Shukuraliyeva Muqaddasxon Maxammadto'xir qizi**

Turon universiteti Andijon filiali magistranti.

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 12-yanvar 2025-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 15-yanvar 2025-yil <b>Jurnal soni:</b> 17 <b>Maqola raqami:</b> 18 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1361">https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1361</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS</b></p> <p>kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, ta'lim-tarbiya jarayoni, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar, mehnat bozori, ta'lim sifati.</p>	<p>Maqolada kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmun mohiyati, ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy kompetentlikning tarkibiy elementlari mohiyati va shakllanishi muhokama qilinadi. Kompetensiya – barcha turdagi resurslardan: bilim, ko'nikma va tajribadan, faoliyat uslublaridan va samarali qurilmalardan foydalanib, kasbiy muammolarni hal qilishga va maqsadlarga erishishga tayyorlik ekanligi, kompetentlik esa ma'lum bir shaxsda qandaydir kompetensiyaning namoyon bo'lishi, uni o'zlashtirish o'lchovligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada kasbiy kompetentlikning ta'lim sifati oshirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Kasbiy kompetentlikning ijtimoiy, maxsus, shaxsiy, texnologik va ekstremal komponentlari, ularni rivojlantirish metodikasi, shuningdek, pedagoglar oldidagi dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Maqola kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim jarayonini optimallashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritadi.</p>

**Kirish.** Mehnat bozorining o'zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti glabollashishi ta'sirida maktab bitiruvchisiga qo'yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy maktab o'z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta'lim oluvchilarni ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur. Albatta, XXI asrning ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo'lishini shiddat bilan rivojlanib, o'zgarib borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. Shu bois maktab ta'lim oluvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o'zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma'naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqazo etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi ta'lim – murakkab va dolzarb mavzulardan biri bo'lib, bugungi kunda eng ko'p o'rganishni talab qilmoqda. Bu sohani o'rganish uchun dastlab kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini taxil qilish va o'zaro farqlash muhimdir.

Kompetensiya – sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar majmui, shaxsning qadriyati va sifatleri, kvalifikatsiyasining namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati.

Kompetensiya - u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik<sup>1</sup>. "Kompetensiya" (lot. competo – erishayapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. Kompetensiya so'zining 16 xil ma'nolarini psixologlar tomonidan quyidagicha aniqlangan<sup>2</sup>:

- ishlab chiqarish masalalarini yechish qobiliyati;
- aniq vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyati;
- kasbiy standart tavsifiga mosligi;
- tashkilot tomonidan sub'ektning sifatli faoliyatini shakllantirish maqsadida ishchiga qo'yilgan talab;

- ishchining xulq-atvor me'yorlari tashkilotga mosligi; bilim, ko'nikma va malakalar (BKM), qobiliyat, motiv, shaxs, kommunikativ sifatlar va boshqa tushunchalarning umumiy tushunchasi;

- sifatli ishga tayyorgarligi va ko'nikmasi;
- lavozim vazifalariga mas'ulligi va vakolati;
- BKM+kasbiy muhim sifatlar;
- kompetensiyaning turli jihatleri;
- kasbiy muhim sifatlar tashkilotchilik konteksti bilan birgalikda;

- kasbiy tajribani chuqur anglanishi;
- shaxsiy xususiyat, individuallik;
- muvaffaqiyatli faoliyatda inson omili;
- samarali ishlab chiqarish faoliyati mezonlari;
- ijodkorlik;
- aniq tashkilotlarda ishlab chiqarish vazifalari.

Kompetensiya tushunchasini kompetentlik tushunchasidan farqlash lozim. Kompetentlik tushunchasi deganda ma'lum bir sohada tinglovchi tomonidan egallangan kompetensiya, ya'ni ma'lum bir sifatning to'liq shakllangan majmui tushuniladi. Kompetentlik tushunchasi (lotinchadan competentia, compete so'zidan olingan bo'lib – "birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'noni beradi) lug'atlarda esa "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish", "xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. Amalda barcha lug'at tuzuvchilar "kompetentlik" va "kompetensiya" kategoriyalarini chegaralab qo'yadi. Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birini o'rnini egallaydi (to'ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu tushuncha "vakolatlari yig'indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar", "nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish (egallik qilish)", "kimdir yaxshi xabardor bo'lgan savollar to'plami (sohasi)" tushuniladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi sharoitida o'qituvchining kasbiy kompetentligi nafaqat pedagogik faoliyat sifatini belgilovchi asosiy omil, balki ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'lim sohasidagi islohotlar, yangi pedagogik

<sup>1</sup> Pedagogikadan atamalar lug'ati – Toshkent: Fan. 2008. – 196 b.

<sup>2</sup> Communicative competence and its meaning. <http://elibrary.ru>

texnologiyalar, raqamli resurslarning joriy etilishi va talabalar individual xususiyatlarini hisobga olgan yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sababli, o'qituvchining bilim, malaka va kasbiy ko'nikmalarini doimiy takomillashtirish, zamonaviy pedagogik usullarni amaliyotga tatbiq etish hamda o'z kasbiy rolini samarali bajarish qobiliyati dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur mavzu ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib, u nafaqat pedagogik faoliyatni sifatli tashkil etish, balki talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** "Kompetentlik" tushunchasi to'g'risidagi dastlabki fikrlar Buyuk Britaniyalik mashhur psixolog olim Djon Raven<sup>3</sup> tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u kompetentlikning xususiyatlari to'plamini yagona bir tizimga birlashtiradi hamda kompetentliklar ham intellektual, ham emotsional xususiyat kasb etgan holda, o'zaro almashuvchanlik xarakterini "motivatsiyalashgan qobiliyatlar" asosida namoyon qilishini ta'kidlaydi.

N.A. Muslimovning doktorlik dissertatsiya ishida, kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalangani<sup>4</sup>.

I.A. Zimnyayaning fikriga ko'ra, "kompetensiya – bu ba'zi bir ichki potentsial, yashirin psixologik yangi shakllanishlar (bilimlar, g'oyalar, harakat dasturlari, qadriyatlar tizimlari va qarashlari), kompetentlik esa bilimga asoslangan, insonning ijtimoiy va kasbiy hayotida aniqlangan intellektual va shaxsiy tajribasidan iborat bo'lgan foydalanilmayotgan yashirin, potentsial zaxiradir"<sup>5</sup>.

A.V. Xutorskiy ushbu tushunchalarni noaniq talqin qilib, "kompetensiya" – "bitiruvchilarning ta'limga tayyorlashga qo'yilgan talablarni aks ettiruvchi o'zaro bog'liq bo'lgan shaxs xususiyatlarining majmui va "kompetentlik" shaxsning tegishli kompetensiyaga egaligi" deb ta'riflagan<sup>6</sup>.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotning maqsadi ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning metodologiyasi nazariy va empirik jihatlarni birlashtirgan holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqot obyekti ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni bo'lsa, predmeti ta'lim muassasalarida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metod va strategiyalarni o'rganishdan iborat. Tadqiqot namunasi sifatida turli ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar va talabalar tanlandi.

Tadqiqot bosqichlari izchil tarzda tashkil etildi. Avvalo, masalaga oid ilmiy adabiyotlar o'rganilib, kasbiy kompetentlik tushunchasi aniqlashtirildi. Keyin empirik bosqichda ma'lumotlar yig'ilib, kuzatuvlar va intervyular asosida tahlil qilindi. Shu ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinib, kasbiy kompetentlik darajalari aniqlangach, xulosa chiqarildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kompetentli yondashuv quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- ta'lim oluvchilarning o'z maqsadlari bilan pedagoglarga qo'yilgan, ta'lim maqsadini muvofiqlashtirish;
- o'qishda ta'lim oluvchilarning mas'uliyatligi va mustaqilligini oshirish hisobiga pedagogning mehnatini yengillashtirish;
- ta'lim mazmunini mexanik qisqartirish hisobi emas, balki individual mustaqil ta'lim ulushini oshirish hisobiga ta'lim oluvchilar ishini yengillashtirish;
- o'quv va tarbiyaviy jarayonlar birligini nazariyotda emas, balki amaliyotda ta'minlash;
- ta'lim oluvchilarni ongli va mas'uliyatli ta'limga tayyorlash.

**Natijalar.** Kompetentli yondashuv pedagogik nazariya va ta'lim amaliyoti uchun printsipl jihatdan qanday yangilik beradi? Birinchidan, kompetentli yondashuv boshqaruv va ta'lim jarayonlarini loyihalashda didaktik shartlar chegaralarining ancha aniq bo'lgan o'zaro aloqasini ta'minlaydi va osonlashtiradi. Ikkinchidan, gnoseologik

jihatdan kompetentli yondashuv o'qitishning metodik tizimi qismlari bo'lgan maqsad, mazmun va jarayonlarni samarali, mazmunli va instrumental jihatdan bog'laydi. Uchinchidan, kompetentli yondashuv ta'lim jarayoni maqsadi va mazmunini kadrlarga bo'lgan talab va o'zgarib boruvchi mehnat bozoriga aniq ta'sir etishini ta'minlaydi. To'rtinchidan, kompetentli yondashuv tizimning ba'zi qismlarida yaqqol ko'rinuvchi alohida kompetensiyalar yig'indisi sifatida kasbiy kompetentlikning umumiy maqsadini mazmunan, mantiqan va asosli ravishda batafsil tekshirish va izohlash imkonini beradi. Beshinchidan, kompetentli yondashuv o'qitish uslubini yanada aniqroq, maqsadga muvofiq, bir vaqtda uning amaliy (kasbga) yo'naltirilganligini kuchaytirish imkonini beradi. Oltinchidan, kompetentli yondashuv kasbiy fanlar bo'yicha o'quv jarayonlarini loyihalashda o'quv jarayoni maqsadlarini tuzish va aniq ifoda qilish jarayonining o'zini keskin o'zgartirishi, ta'limni yanada sifatli, samarali, boshqariluvchan qilishi mumkin. Yettinchidan, kompetentli yondashuv kasbiy fanlar bo'yicha o'quv jarayonlarini loyihalashda o'quv jarayoni maqsadlarini tuzish va aniq ifoda qilish jarayonining o'zini keskin o'zgartirishi, ta'limni yanada sifatli, samarali, boshqariluvchan qilishi mumkin. Sakkizinchidan, aslida kasbiy kompetentlikni va alohida kompetensiyalarni hisobga olib o'quv jarayoni maqsadlarini tuzishda, kompetentli yondashuvni amalga oshiruvchi yangi didaktik vositalar ajralib turadi. Sakkizinchidan, kompetentli yondashuv o'zida ta'lim jarayonining yetarlicha kuchli bo'lgan motivatsion tashkil etuvchilarni namoyon etadi<sup>7</sup>.

Kompetentli yondashuv ta'lim oluvchining ijtimoiy, kommunikativ, axborot, kasbiy va boshqa shaxsiy sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni o'zida deyarli to'liq amalga oshirish imkonini beradi. Bu yondashuv ta'lim oluvchilar shaxsini to'liq tarbiyalash va muhim amaliy vazifalarni hal qilish imkoniyatini shakllantirish singari kompetensiyalar tizimiga asoslangan<sup>8</sup>.

Kompetentli yondashuv asosida o'z taqdirini o'zi belgilash madaniyati (o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi amalga oshirishga tayyorlik va qodirlikni shakllantirish) yotadi. Kasbiy rivojlanib boruvchi mutaxassis o'z kasbida qandaydir yangilik (innovatsiya), jumladan, yangi texnologiyalar yaratish, mavjud yangi metodlar, usullar va boshqalar bilan ishlash imkoniga ega bo'ladi.

Shuningdek, kompetentli yondashuv yaxlit kasbiy kompetentlikka ega bo'lish uchun ta'lim jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Buning uchun ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi muhimdir.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi<sup>9</sup>

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
  - noaniq vazifalarni bajarishda;
  - bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
  - kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda
- Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:
- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
  - yangi axborotlarni o'zlashtiradi; - davr talablarini chuqur anglaydi;
  - yangi bilimlarni izlab topadi;
  - ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi
- Kasbiy kompetentlik sifatlarining mohiyati

1. Ijtimoiy kompetentlik – shaxsning jamiyatda samarali faoliyat yuritishi, odamlar bilan to'g'ri va samarali muloqot qilishi, ijtimoiy vaziyatlarga moslasha olishi bilan bog'liq muhim sifatdir. U shaxsning ijtimoiy bilimlari, ko'nikmalari, qadriyatlari va tajribasini o'z ichiga oladi

<sup>3</sup> Равен Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – Москва: Когито-Центр, 2002. – 39 с.

<sup>4</sup> Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. dok. – T., 2007. – 315 b.

<sup>5</sup> Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании // Ректор вуза. – 2005. – № 6. – С. 13-29.

<sup>6</sup> Хуторский А.В. Ключевые компетентности как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2.

<sup>7</sup> Чошанов М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения: Методическое пособие. – М.: Народное образование, 1996. – 160 с.

<sup>8</sup> То'раев В.З. Информатика va axborot texnologiyalari sohosi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish: Dis. ... ped. fan. fal. dok. (PhD). – Toshkent, 2018. – 104 b.

<sup>9</sup> Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 127 b.

hamda kundalik hayotda, ta'lim jarayonida va kasbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy kompetent shaxs boshqalar bilan hamkorlikda ishlashni, fikrini aniq va madaniyatli ifoda etishni, turli nuqtai nazarlarni hurmat qilishni biladi. U muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga intiladi va jamiyat qoidalariga amal qiladi. Bunday kompetentlik empatiya, mas'uliyat, bag'rikenglik va ijtimoiy faollik kabi sifatlar bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi kunda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lish faqat bilim bilan emas, balki ijtimoiy muhitga moslasha olish, jamoada ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni his etish bilan ham belgilanadi. Shu sababli ijtimoiy kompetentlik shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi.

2. Maxsus kompetentlik – bu shaxsning muayyan soha yoki kasb doirasida chuqur bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini ifodalovchi tushunchadir. U professional faoliyatni samarali tashkil etish, kasbiy vazifalarni mustaqil va mas'uliyat bilan bajarish hamda o'z sohasida yuzaga keladigan muammolarni hal eta olish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Maxsus kompetentlik tarkibiga nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy tajriba, kasbiy tafakkur, zamonaviy texnologiyalarni qo'llay bilish va o'z ustida doimiy ishlash kiradi. Bunday kompetentlikka ega shaxs o'z kasbiga oid yangiliklarni kuzatib boradi, malakasini oshiradi va faoliyatida innovatsion yondashuvlardan foydalanadi. Bu esa uning mehnat bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

**Muhokama.** Hozirgi kunda maxsus kompetentlikni shakllantirish ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti malakali, o'z kasbini puxta egallagan mutaxassislariga bog'liq. Shuning uchun maxsus kompetentlik shaxsning kasbiy kamoloti va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

a) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida ang'ay olish va bartaraf eta olish;

b) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinni, samarali foydalanish;

d) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – shaxsning o'zini ang'ay, o'z faoliyatini boshqarish va hayotiy vaziyatlarda ongli qarorlar qabul qila olish qobiliyatini ifodalovchi muhim sifatdir. U insonning ichki dunyosi, qadriyatlarini, maqsadlarini hamda xulq-atvori bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxsning har tomonlama kamol topishida muhim o'rin egallaydi.

Shaxsiy kompetentlikka ega inson o'z kuch va imkoniyatlarini to'g'ri baholay oladi, mas'uliyatni his qiladi va o'z ustida ishlashga intiladi. U stressli va murakkab vaziyatlarda o'zini boshqara oladi, muammolarga ijobiy yondashadi hamda mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday kompetentlik o'z-o'zini rivojlantirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va hayotiy maqsadlarni aniq belgilash bilan namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki shaxsiy kompetentlikka ega bo'lgan inson jamiyatda o'z o'rnini topa oladi, ijtimoiy va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishadi. Shu bois shaxsiy kompetentlik barkamol, mas'uliyatli va mustaqil shaxsni shakllantirishda asosiy omillardan biri sanaladi.

4. Texnologik kompetentlik – shaxsning zamonaviy texnologiyalarni bilishi, ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalana olishi hamda texnologik jarayonlarni ongli ravishda boshqarish qobiliyatidir. U axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli vositalar va innovatsion texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi va bugungi kunda ta'lim hamda kasbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologik kompetentlikka ega bo'lgan shaxs turli dasturiy vositalardan foydalanadi, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlashni biladi. Ta'lim jarayonida bu kompetentlik elektron darsliklar, interaktiv platformalar, masofaviy ta'lim vositalari va multimedia resurslaridan samarali foydalanishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, texnologik kompetentlik muammolarni texnologik yechimlar asosida hal etish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Hozirgi raqamli jamiyatda texnologik kompetentlikni rivojlantirish zaruratga aylangan. Shaxsning doimiy ravishda yangi texnologiyalarni o'rganishi, ularni o'z faoliyatiga tatbiq etishi uning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu sababli texnologik kompetentlik zamonaviy ta'lim-tarbiya va kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

5. Ekstremal kompetentlik – shaxsning favqulodda, xavfli yoki keskin vaziyatlarda o'zini to'g'ri boshqara olishi, tez va oqilona qaror qabul qilishi hamda xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda harakatlanish qobiliyatidir. Ushbu kompetentlik inson hayoti va salomatligini saqlash, shuningdek, atrofdegilarga zarar yetkazmaslik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Ekstremal kompetentlikka ega bo'lgan shaxs stressli holatlarda sarosimaga tushmaydi, vaziyatni tez baholay oladi va mos choralarini ko'radi. U favqulodda holatlarda (yong'in, tabiiy ofatlar, texnogen xavflar va boshqa xavfli vaziyatlarda) xavfsiz harakatlanish qoidalarini biladi, birinchi yordam ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'ladi hamda boshqalarga yordam berishga tayyor turadi. Bu kompetentlik mas'uliyat, o'zini nazorat qilish va jasorat kabi sifatlar bilan bog'liq.

Bugungi kunda ekstremal kompetentlikni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki favqulodda vaziyatlarga tayyorlik insonning hayotiy xavfsizligini ta'minlaydi va jamiyatda xavfsizlik madaniyatini yuksaltiradi. Shu bois ekstremal kompetentlik shaxsning hayotiy muhim ko'nikmalaridan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog va tarbiyachilarning o'quvchi hamda tarbiyalanuvchilarga bilim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmui kasbiy kompetentlikni ifodalaydi. Kasbiy kompetentlik ta'lim jarayonining maqsad va vazifalarini to'g'ri ang'ay, pedagogik jarayonni ilmiy asosda rejalashtirish va amalga oshirishni taqozo etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy kompetentlik pedagogning o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlashida, samarali metod va texnologiyalarni tanlashida namoyon bo'ladi. Shuningdek, baholash jarayonini adolatli olib borish, tarbiyaviy ishlarni uzviy tashkil etish, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini singdirish ham kasbiy kompetentlikning muhim jihatlaridir.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida kasbiy kompetentlikni doimiy rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagoglarning o'z ustida ishlashi, malakasini oshirishi, innovatsion yondashuvlarni qo'llashi ta'lim-tarbiya sifatini oshiradi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy kompetentlik barkamol, mustaqil fikrlovchi va jamiyatda faol o'rin egallay oladigan shaxsni tarbiyalashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan dolzarb masalalardan kasbiy kompetentlikning yetarli rivojlanmaganligidir. Ushbu muammolar pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy faoliyati va doimiy rivojlanish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Eng asosiy muammolardan biri nazariy bilim bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ba'zi pedagoglar fanini yaxshi bilsalar-da, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, interaktiv metodlarni va innovatsion yondashuvlarni yetarli darajada qo'llay olmaydilar. Natijada dars jarayoni biryozqlama bo'lib, o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashi yetarli darajada rivojlanmaydi.

Shuningdek, kasbiy motivatsiyaning pasayishi, o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyojning sustligi ham muammo sifatida ko'riladi. Doimiy malaka oshirishga yetarli e'tibor berilmasligi, pedagogik yangiliklarga befarqlik kasbiy kompetentlik rivojini sekinlashtiradi. Bundan tashqari,

ortiqcha hujjatbozlik, yuklamaning ko'pligi va vaqt yetishmasligi ham pedagogning kasbiy o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Yana bir muhim muammo raqamli va texnologik kompetentlikning yetishmasligidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olmaslik, elektron ta'lim platformalarini bilmaslik pedagogning zamonaviy ta'lim talablariga moslashishini qiyinlashtiradi. Bu holat ayniqsa masofaviy va aralash ta'lim jarayonlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Kasbiy masalalarni hal etish uchun pedagogning axborotlashtirish vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash qobiliyati – axborot-kommunikatsion kompetentligi uning kasbiy kompetentligi komponentlaridan biriga aylanib bormoqda. O'qituvchilarning axborot-kommunikatsion kompetentligini axborot-kommunikatsion ta'lim muhitida shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday kompetentlikka ega mutaxassislar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning turlarini, multimedia va ularning tashkil etuvchilarini, texnik-dasturiy vositalarini, virtual borliq va unda qo'llaniladigan texnologiyalarni, kompyuter tarmoqlarini va uning turlarini, internet tarmog'ining asosiy xizmatlarini, mobil ta'lim va ommaviy onlayn ochiq kurslarni bilishi bilan farqlanadi.

Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:

- O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 127 b.
2. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Dis. ... ped. fan. dok. –T., 2007. – 315 b.
3. Pedagogikadan atamalar lug'ati –Toshkent: Fan. 2008. – 196 b.
4. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – Москва: Когито-Центр, 2002. – 39 с.
5. То'раев В.З. Информатика va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy

- O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;

- O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

Ta'limda kasbiy kompetentlikdagi muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglarni doimiy qo'llab-quvvatlash, samarali malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish va zamonaviy ta'lim sharoitlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu esa ta'lim sifati va pedagog kasbiy mahoratining oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetentlik mutaxassisning o'z kasbini mukammal egallashi, nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay olishi, zamonaviy talab va o'zgarishlarga moslasha bilishi bilan belgilanadigan muhim omildir. Kasbiy kompetentlik faqat bilim bilan cheklanmay, balki shaxsiy sifatlar, ijtimoiy faollik, texnologik savodxonlik va mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi.

Kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan mutaxassis muammolarni mustaqil hal etadi, innovatsion yondashuvlardan foydalanadi va doimiy ravishda o'z ustida ishlaydi. Ayniqsa ta'lim sohasida kasbiy kompetentlik pedagog faoliyatining samaradorligini oshirib, o'quvchi va tarbiyalanuvchilarning bilim, ko'nikma hamda tarbiyasiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, u sifatli ta'lim, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

kompetentligini shakllantirish: Dis. ... ped. fan. fal. dok. (PhD). – Toshkent, 2018. – 104 b.

6. Хуторский А.В. Ключевые компетентности как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2.

7. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании // Ректор вуза. – 2005. – № 6. – С. 13-29.

8. Чошанов М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения: Методическое пособие. – М.: Народное образование, 1996. –160 с.